XURSHID MUHAMMADDO'STNING "BOZOR" ROMANI VA "JAJMAN" HIKOYASIDA MIFLARNING TALQINI

Dilshoda ALIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy adabiy jarayonda mualliflarga umuminsoniy mazmunni aniqlash, borliqning umumiy qonuniyatlarini anglash uchun zamon va makon chegaralaridan chiqish imkonini beradigan modelni qidirish yoki uni yaratishdek dolzarb vazifaning paydo bo'lishi.

Kalit so'zlar: Mif, afsona,rivoyat, hikoya, qadriyatlar,an'analar, badiiy tasvir, poetik talqin, borliq, obraz.

INTERPRETATION OF MYTHS IN KHURSHID MUHAMMADDOST'S NOVEL "BAZOR" AND THE STORY "JAJMAN"

Annotation. In the modern literary process, the urgent task of searching for or creating a model that allows authors to go beyond the boundaries of time and space in order to determine the universal content, to understand the general laws of existence.

Key words: Myth, narrative, story, values, traditions, artistic image, poetic interpretation, existence, image.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИФОВ В РОМАНЕ ХУРШИДА МУХАММЕДСТА «БАЗОР» И РАССКАЗЕ «ДЖАДЖМАН»

Аннотация. В современном литературном процессе актуальна задача поиска или создания модели, позволяющей авторам выйти за границы времени и пространства, чтобы определить универсальное содержание, понять общие законы существования.

Ключевые слова: Миф, нарратив, рассказ, ценности, традиции, художественный образ, поэтическая интерпретация, существование, образ.

Dunyo adabiyotshunosligida keyingi yillarda, xususan, so‘nggi yuz yillikda yaratilayotgan adabiy asarlarda ko‘zga tashlanadigan olam modeli, dastlab, idrok etilgan ma'naviy-estetik olamlaridan sezilarli farq qiladi. Zamonaviy adabiy jarayonda mualliflarga umuminsoniy mazmunni aniqlash, borliqning umumiy qonuniyatlarini anglash uchun zamon va makon chegaralaridan chiqish imkonini beradigan modelni qidirish yoki uni yaratishdek dolzarb vazifa maydonga keldi. Mifologik modellarni o‘rganishga qiziqish esa, dunyo adabiyotida poetikaining bir bo‘lagiga aylanib ulgurgan mifopoetika nazariyasining paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Istiqlol davri adabiyotida milliy ruhni anglash va talqin etishda tom ma'nodagi evrilish va yangicha tasavvur jarayoni paydo bo‘ldi. Badiiy tafakkurning evrilishiga xos bunday tamoyillarni o‘zbek milliy romanchiligida o‘ziga xos badiiy izlanishlarda aks etayotgani, voqelik tasvirida rang barang mifopoetik unsurlarning qo‘llanilishi janriy va uslubiy yangilanishlarni yuzaga keltirdi. Eng muhimi, Xurshid Do‘stmuhammad o‘zining yangi roman va yunon miflarini badiiy talqini bilan jahon adabiyoti xazinasiga o‘zbek obrazini kiritdi va XXI asr o‘zbek adabiyoti uchun ijodiy zamin yaratdi. Umuman olganda, jahonda adabiyotning muqaddimasidan boshlab bugungi kunimizga qadar mifologik obrazlar bilan bog‘liq ko‘plab badiiy va ilmiy asarlar yaratilganki, ulardagi mazkur obrazlar na g‘oyaviy, na mavzuviy va na maqsadi jihatdan chegara bilmaydi. Dunyoni mifopoetik idrok etishga urunish davom etib kelayotgan har jihatdan sivilizatsiyalashgan bugungi asrda san'at va adabiyot sohasida olib borilayotgan bu boradagi yangicha izlanishlar ham zamon va insoniyatning intellektual salohiyatiga moslashmoqda. Adabiyot, jumladan, boshqa sohalarning ham bosh obyekti bo‘lgan

insonning aqli yuksak darajada takomillashgan bo‘lishiga qaramasdan, mifologik tafakkurga intilish, ergashish ularning ongidagi borliqni anglashga urinish jarayonida paydo bo‘layotgan ma'naviy bo‘shliqni to‘ldirishga urinish natijasi mahsulidir. Miflar yaratilishi insoniyatning borliq orqali o‘z-o‘zini anglashga qo‘ygan ilk qadami edi. Tadrijiy sur'atda Yunonistonning turfa hududlarida vujudga kelgan mif asotirlardan ilohlar, qahramonlarning taqdiri haqida turkumlar tashkil topgan. Yurma-yurt kezib qo‘shiq kuylab yurgan ayedlar tomonidan ijro etilgan barcha qo‘shiq va afsonalar keyinchalik zamonlar o‘tishi bilan yozma adabiyot holiga kelgan. Milliy adabiy jarayonda o‘z o‘rni, ijodiy uslubiga ega Xurshid Do‘stmuhammadning milliylikdan uzoqlashmagan holda yaratilgan asarlari badiiy-falsafiy nuqtai nazardan mag‘zi pishiq asarlar sirasidandir. Hatto bugungi rivojlangan dunyoda sodir bo‘layotgan voqelik va hodisotlar tub mohiyatining ildizlarini, sabab va oqibatlarini, o‘rni kelganda, yechimni ham mifologik olamdan izlash odamzod ongini tark etgani yo‘q, aksincha, yangicha shaklllarda tus olib bormoqda.

Istiqlol yillarida ijod qilayotgan zamonaviy adabiy jarayon vakillari orasida ham goh G‘arb mifologiyasi, goh Sharq mifologiyasiga ergashib asarlar yaratayotgan yozuvchilarning mifopoetik tafakkur borasida olib borayotgan izlanishlari e'tiborga loyiqdir. Xususan, Omon Muxtor, A.Dilmurod, N.Eshonqul, I.Sultonlar bilan bir zamonda qalam tebratib, eski (arxaik) mifologik modellar asosida yangi mif-asarlar yaratayotgan adib Xurshid Do‘stmuhammadning mashhur “Donishmand Sizif” neomifologik romanidan tashqari, “Bozor” romani hamda “Jajman” hikoyasi o‘zbek milliy adabiyotida Sharq an'analari va mifologiyasiga ergashib yaratilgan nodir asarlar sirasidandir. Bu ijodkor yaratgan asarlarda o‘tgan asrda taqiqlangan, ilohiy talqinlar, mifologik syujet hamda folklor

namunalarining real voqelik bilan parallel tasvirlanishi kabi yo‘nalishlar ko‘zga tashlana boshladi. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mifalogik obrazlarning genezisi, badiiyat masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy tipologik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi. Adib ijodida salmog‘i jihatdan qissaga tatiydigan “Jajman” hikoyasi ham munosib o‘rin egallaydi, xususan, adabiyotshunos G.Sattrova hikoyadagi yozuvchining voqeiylikni badiiy aks ettirishdagi obrazlar talqini uslubi haqida to‘xtalar ekan, undagi badiiy obrazlar qanday holatda tasvir etilmasin, ularda milliy harakter yetakchilik qilishini o‘rinli ta'kidlaydi. Adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonovning bu davr haqida bildirgan quyidagi fikrlari aynan “Bozor” romanining tub mohiyatini anglashga turtki bo‘ladi. “Yangi asr boshida jamiyatdagi fan va tehnika sohasida ro‘y berayotgan kashfiyotlar, o‘zgarishlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o‘sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko‘rsatdi. Turmush tarzining bozor munosabatlariga o‘tishi odamlarning iqtisodiy tafakkurini butunlay o‘zgartirib yubordi. U bu talato‘p hayotda ilojini qilib yashab qolish, turmush farovonligini oshirish maqsadida hech ikkilanmay o‘zini o‘tga, cho‘qqa ura boshladi. Dastlab bu urinishglarning oqibatini o‘ylab ham o‘tirmadi, bugun topsam yesam bo‘ldi deb o‘yladi. Keyinroq esa bugungi topganiga qanoat qilmay, yana-da xavfliroq, yana-da murakkabroq, yanada mashaqqatliroq o‘pqonlarga o‘zini otdi”. 2000-yilda nashr etilgan “Bozor” romani haqida, birinchilardan bo‘lib, jiddiy fikr bildirgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov asarga “O‘tgan kunlar” bilan boshlangan XX as romanchiligining munosib yakuni deya baho beradi. Romanning paydo bo‘lishi va qo‘yilgan muammo butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Avestoda uchragan zardushtiylik dinining yakka xudosi Zardusht mif obrazini eslatadi. Muallif butun jamiyat

tasvirini qamrab olish uchun epik turning keng imkoniyatiga ega bo‘lgan janrini tanlaydi. “Istiqlol davriga kelib, roman janri o‘zining tarixiy tajribalariga tayanib, buyuk Sharq adabiyotining badiiy va falsafiy an’analarini ijodiy davom ettirdi, bayon va tasvirlash usullarida jiddiy ijodiy tajribalarni amalga oshirdi. Natijada, so‘nggi yillar romanlari voqealar tizimining kutilmagan foydalana tasodiflarga boyligi, miflar, afsona va rivoyatlardan unumli hamda o‘rinli bilishi, ma’daniy-ma’rifiy, diniy-ma’naviy qadriyatlarimizning barhayotligini isbotlovchi tasavvufiy qarashlarni singdirishga urinishim bilan e’tiborni tortmoqda”, deya yozadi Y.Solijonov.

X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romanda bir qancha mifologik modellarga duch kelish mumkin. Xususan, Odam Ato va Momo Havvo hamda ular haqidagi mif asotirlar, ishoralar shuningdek Qadriyaning tilidan aytilgan “Qo‘sh baytal va yetti bo‘ri yulduzlari” haqidagi samoviy mif ham keltiriladi. Dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, aslida, odamzotning hirslari, nafsi oqibatida ekanligini mif orqali angnlatishga urinadi. Romanda yana ko‘chib yuruvchi mifologik motiv obrazlar ham mavjud bo‘lib, bular Zarbobo, Von-Suu hamda notanish odam (Azroil) obrazlaridir. Bundan tashqari, hayot modelini badiiy talqin qilish uchun majoziy-falsafiy tasvir tamoyillariga, xususan, Sharq mifologik obrazlariga tayanagan X.Do‘stmuhammad bozor orqali hayotning ramziy shaklini tasvirladi, deyishimiz mumkin. Bozor – barchamizga tanish bo‘lgan savdogar va xaridorlar, makr, xiyla, aldov bilan to‘lib toshgan, odamlarni ming tusga, ming ko‘yga soladigan izdihom tasvirini o‘z ichiga oladi. Romanda bir qancha mifologik modellarga duch kelish mumkin. Bular orasida eng ko‘p uchraydigani Sharq adabiy-badiiy an'analariga xos bo‘lgan diniy mifologiyalar va obrazlardir. Shuningdek, romanda Odam Ato muhabbati, mehr va shafqati misolida Fozilbek

va Qadriyaning sof va samimiy munosabatlari, ruhiy evrilishlari, harakat-intilishlari izohlanadi. Mazkur talqinda dunyoni muhabbat va go‘zallik asrashi mumkinligi, inson o‘z fe'lidagi yovuzliklarni bartaraf qilib, haqiqiy tuyg‘ular bilan yashamog‘i kerak, degan g‘oya ifodalangan. Ilohiy va eng sof insoniy tuyg‘ular – yovuzlik kushandasi bo‘lishi mumkinligi mifologiya va ilohiy motiv asosida asoslangan. Roman davomida bir necha o‘rinda Odam Ato va Momo havvo ilohiy mif obrazlariga Fozilbek va Qadriyaxonlarning taqdirlariga parallel holda murojaat qilinadi. “Fozilbek bir ko‘ngli shartta ortiga o‘girilib, qiz tomon yugurib borgisi, odamlardan uyalmay-netmay uni bag‘riga bosib erkalagisi keldi. Keldi-yu... Havvo aytdi: “Mani tilar ersang, sen kelgil” dedi. Odam Ato yurib Havvoga keldi. Magar Odam bir dam sabr qilsa erdi, Havvoning o‘zi kelur erdi.” Odam bir dam sabr qilsa edi. andak sabr qilganida. Odamlardagi sabrsizlik, betoqatlik o‘shandan boshlangan. Hamonki hazrati Odam Ato shunday ekanlar, demak. biz osiy bandalarda ne gunoh? “Fozilbek xayolidan o‘tgan ushbu o‘ylarda Odam Ato va Momo Havvoning yer yuzidagi uch yuz yillik ayriliqdan so‘ng, hozirda Arofat deya nomlangan tog‘dagi ilk uchrashganlari haqidagi rivoyatga ishora qilinadi. Mazkur rivoyatlarning ba’zi variantlarida Ular Arofat tog‘ida bir-birlarini ko‘rishganida Odam Ato Momo Havvoni o‘zlari tomonga imlaganlarida, Havvo momomiz ham Odam Atodan kam bo‘lmagan darajada sog‘inch azobida o‘rtanayotgan bo‘lsalar-da noz-karashma bilan, to‘xtagan joylaridan jilmaydilar, so‘nggi hijron daqiqalariga sabr qila olmagan Odam (a.s.) shu zahoti o‘zlari Havvoning visoliga oshiqadilar. Ayol tomonga doimo erkak kishining intilishi Odam Atodan qolgan deya naql qilinadi mif rivoyatlarda. Mifologik rivoyat, ayni o‘rinda, Odam Ato va Fozilbek obrazlarini yonma-yon qo‘yib, tasvirlanayotgan voqelikning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan, shuningdek, Fozilbekning

ruhiy holati, barchaga birdek tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. Mazkur rivoyatga ishora qilish orqali, yozuvchi Fozilbekdagi sog‘inch hissining haddan ortgani va bu sababdan Qadriya tomon talpinib, uni quchog‘iga olishga intilayotganidagi shoshqaloq istaklarning oqibatini Odam (a.s.) bilan bog‘lab, Qahramonning ichki kechinmalarini xolislik bilan baholashga urinadi. Romanda, shuningdek, Qadriyaning tilidan aytilgan “qo‘sh baytal va yetti bo‘ri yulduzlari” haqidagi astrnomik mif-asotir ham keltiriladi. Romanda yana ko‘chib yuruvchi mifologik motiv obrazlar ham mavjud bo‘lib, bular Zarbobo, Von-Suu hamda notanish odam (Azroil) obrazlaridir. Roamndagi noreal voqeliklar, asosan, shu obrazlar bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Zarbobo obrazi, dastavval, “Bobo esa... Endi u bir nuqtaga turgan ko‘yi gir-gir aylana boshladi, tinmasdan nimalardir dedi, lekin aytganlarini ilg‘ab bo‘lmadi, tobora tezroq aylanaverdi, aylanish tezlashgani sayin boboning ko‘ksiga tushadigan oppoq, qalin soqoli bamisoli zilol suv girdobiga o‘xshab ketdi. Bobo aylanishdan to‘xtamadi, aksincha, shiddatni yanayam oshirdi, suv girdobidan nur tarala boshladi. Fozilbekning nazarida bobo hozir yerga yuztuban yiqiladigan edi, ikki xatlab borib, uni mahkam quchoqlab olishdan o‘zga chora qolmadi, biroq... charx urib aylanayotgan nur girdobidan taralayotgan shu'la quyuqlashib, tevarak atrofni yanayam yorishtirib yubordi”. Mazkur obrazning tabiati, harakatlari, zikr tushishi, tasavvuf ahlining, rumiyona – samoviy raqsini eslatadi. Zar bobo obrazining purma’no gap-so‘zlaridan kelib chiqib, aynan mifologik Zardusht obrazidan ilhomlanib yaratilgan deyishimiz mumkin. Shuningdek, mif va asotirlarda doimiy uchrovchi motiv obraz – donishmand chol sifatida talqin qilinganida ham mifologik obraz sifatida bo‘y ko‘rsataveradi. Romanda Zar bobo obrazi qalb ko‘zi ochiq, dunyoga maftun bo‘lmagan, dunyo moliga ko‘ngil qo‘ymagan, tiriklikning mohiyatini anglab yetgan, sodir

bo‘layotgan ko‘ngilsizliklrning sababini ham, allaqachon, bilib bo‘lgan obraz sifatida namoyon bo‘lgan. Yozuvchi, bu mif-obraz orqali o‘z idealidagi insonni yaratadi. “Bozor” romanining syujetiga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, diniy-mifologik rivoyatlarda ko‘chib yuruvchi motiv syujetni ilg‘ashimiz ham mumkin. Shuningdek, X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romani yaratilishida xamirturush vazifasini o‘tagan “Jajman” hikoyasida ham ayni syujet va obrazlarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bu hikoya voqealari ham majoziy-falsafiy ma’nodgi “bozor”da sodir bo‘lib, romandagi kabi timda jajman deya atalmish kattaligi qarich ham kelmaydigan bir nojins maxluqning paydo bo‘lgani va timdagi odamlarning xonavayron qilayotgani haqida hikoya qilinadi. Hikoya haqida Adabiyotshunos va shoir Xurshid Davron quyidagicha fikr bildiradi. “Mening nazarimda,”Jajman” jannatdan quvilgan Odam Ato qavmining tarixi haqidagi hikoyadir. Bozordagi har gal yo‘q etilganday, ammo yana paydo bo‘ladigan yeb to‘ymas maxluh bilan kurash boshlagan odamlar bilmaydilarki, bu maxluq bekinadigan, yana chiqib keladigan teshik bozor chetidagi devordagi tuynuk emas, balki ularning qalbidadir”. “Bozor” romanida duch kelganimiz mifologik obraz timsolida namoyon bo‘lgan Zar bobo obrazini – hikoyada, aynan, Avesto va Sharq mifologiyasidagi kabi Zardusht bobo nomi bilan uchratamiz. Mazkur obraz hikoyaning bir necha o‘rnida qadimgi mif va asotirlardagi hamda “Avesto” kitobida yozilganidek bevosita Axuramazdani tilga olib, unga ibodat qilib, najot so‘raydi. Shu sababdan, aniq ishonch bilan aaytish mumkinki, yozuvchi Zardusht bobo timsolida qadimgi sharq mifologiyasida keng tarqalgan Zardushtiylik dinining asoschisi – Zardushtni gavdalantiradi. Hikoyada Zapdusht bobo va tim ahllari tomonidan tilga olingan Axuramazda (Hurmuzd) – juda qadim zamonlarda tasavvur etilgan, mifologik tafakkur mevasi bo‘lgan ezgulik xudosi. Axura Mazda yorug‘lik, obodonlik,

salomatlik, tinchlik, farovonlik kabi barcha ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi iloh sanalgan. Unga qarshi zulmat, ochlik, o'lim, ayoz, urush zaharli va yirtqich jonivorlar kabi barcha yovuzliklarni yaratuvchi hamda boshqaruvchi Anxramaynu, keyinchalik Ahriman, deya atalgan xudo bo'lib, doimo Axura Mazda bilan kurashadi. Miflarga ko'ra bu kurash Axura Mazdaning g'alabasi bilan tugaydi. Keyingi davrlarda Axura Mazda yakka xudo darajasiga ko'tarilib, tavhid ta'limotining asosini tashkil etgan. Turon va Yeron xalqlarining qadimgi epik asarlarida Hurmuzd – ezgulik uchun kurashuvchi, Ahriman – yovuz timsol tarzida tasvirlanadi. Zardushtning vafotidan so'ng bir necha asrlar o'tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiylar uchun muqaddas bo'lgan "Avesto"ga jamlanadi. Shu ma'noda, Ahuramazda olov va nurga e'tiqod qiluvchi zardushtiyalrning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblangan.

Aytishlaricha, qiyomatga yaqin qolgan yillarda, yer yuzida, zulm, qaboxat, nafs, faxsh kabi illatlar haddan oshib ketgan kelajak bir zamonda Otash momo devlar deya atagani yajuj-majujlar paydo bo'larmish. Ular yer yuzidagi, oldidan chiqqan barcha narsani, hatto daryo-yu dengizlarni bir simirishda yeb-ichib tugatisharmish. Natijada odamlar orasida ochlik va qurg'oqchilik avj olib ochdan o'la boshlasharmish. "Bozor" romani va "Jajman" hikoyasida ham aynan mana shu mifologik motiv syujet asos qilib olingan, desak ham xato bo'lmaydi. Xulosa va takliflar. Demak, har ikkala asar yaratilishida miflardan, xalq og'zaki ijodiga keyinchalik yozma adabiyotga ko'chib o'tgan motiv syujet va mif-obrazlar yetakchiligini ko'rishimiz mumkinligi bugungi kunda yaratilayotgan asarlarning nafaqat, G'arb, balki, qadimgi Sharq hamda islom madaniyati an'analaridan – mif va asotirlaridan keng foydalanayotganini asoslaydi.

ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. (Atamalar, istilohlar, siymolar, asarlar va nashrlar). - Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. 664-6.

2. Do'stmuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari // Ijod - ko'ngil munavvarligi. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. 108-110-6.

3. Do'stmuhammad X. Donishmand Sizif. - Toshkent: O'zb. NMIU, 2016.

4. Do'stmuhammad X. Qissalar.–T: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2011.

5. "Тафаккур" журнали, 2019 йил, 3-сон. 55-61-бетлар.

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

7. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

9. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.